

## MILLIY VA IJTIMOIY KURASHLAR DAVRI O'ZBEK ADABIYOTIDA МАХМУДХО'JA БЕHBUDIYNING FAOLIYATI

*Ismandiyarova Oydin Abdimo'minovna*

*Ohangaron Shahar 9-umumiy o'rta ta'lif makkabining*

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

*+99894 629 39 00*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash jarayoni davr adabiyotining ruhi va mazmuni tashkil etilganligi, miliy uyg'onish mintaqamizda jadidchilik shaklida namoyon bo'lganligi, o'z mustaqilligini yo'qotishi natijasida ko'plab "millat yuragi"ning so'nish sabablari, adabiyot davr voqealari ta'sirida g'arblastishi, mazmun-mundarijasi kengayishi, an'anaviy she'riyat va u bilan bog'liq timsollarga yangi mazmun kirib kelishi, bir so'z bilan aytilganda zamonoviy, realistic adabiyot maydonga kelganligi va bunda ko'plab tarixchi olim, tilshunos, pedagoglar, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning faoliyati va hissasi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** (A. Shakuriy), Halvoiy, "Taqnid saralamoqdur", I.I.Geyer "Sayohatnama", amir Shohmurod, "Sho'ro", "Sartlar"

1905-1917 yillarda Rossiya va jahon tarixida yuz bergen bir qator muhim siyosiy voqealar Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ushbu davrdagi voqealarni bir qismini shoira Nozimaxonim(1870-1924):

Bayon et, ey ko'ngil, rozingni har dam,

Eshitsun ahli dillar, bo'lsa hamdam, -

deb talqin etgandi. 1904-yilda boshlangan rus-yapon urushi va Rossiyaning yengilishi , 1905-yildagi mamlakatdagi ichki nizolar, tobe millatlarga so'z, matbuot, vijdon erkinligini va'da etuvchi 17- oktyabr Manifestining e'lon qilinishi, birinchi jahon urishi hamda Turkistondagi mardikorlik voqealari muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Hamisha bunday vaqtida erkinliklarga imkon topiladigan davr yani o'tish davri XX 20-yillari eski mustamlaka tuzumidan sotsialistik diktaturaga o'tish davri bo'ldi. Xuddi shu davrda Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat ijodining eng sara namunalarining vujudga kelgan ya'ni adabiy-madaniy harakatchilik boshlangan.

Turkistonda ham Rossiyadagi kabi ulkan siyosiy hodisalar yuz berdi va aynan ushbu vaqtida ko'plab millatni erk vaadolatga uyg'otuvchilar bo'lgan, jumladan, jadidchilik harakatining bonysi Mahmudxo'ja Behbudiyydir.

Mahmudxo'ja Behbudiylar 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi behbudxoja solihxoja

o‘g‘li turkistonlik Ahmad Yassaviyning avlodlaridan , ona tomonidan bobosi Niyozxoja Urganchlik bo‘lib amir Shohmurod zamonida(1780-1785) Samarqandga kelgan. Otasi imom-xatib bo‘lgan, shu bilan birga, uning zamondoshlari uni juda halol ekanligi, uyiga ruxsatisiz bir tanga ham kirmaganligini aytishadi. U 1894-yilda yosh Mahmuxoja 19 yoshida vafot etgan. Mahmudxojaning tog‘asi qozi Muhammad Sidiq uni otasi vafotidan so‘ng o‘z qamrog‘iga oladi.

U birinchi Samarqand madrasasida keyin esa Buxoroda tahsil olgan. U oz ustida tinmay ishlaganligi tufayli shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko‘tarilgan.

1899-1900-yillarda Behbudiy va uning buxorolik do‘sti Xoji Baqo haj safariga borishadi.<sup>1</sup> Behbudiy bu haqda : “1318 sanai hijriyasi tavofi Baytullog‘a Kavkaz yo‘li ila Istanbul va Misr al Qohira vosita-la borib edim. Muddati safarim sakkiz oydin ziyoda cho‘zilib edi”<sup>2</sup>- deb yozadi. Uning bu 8 oy davom etgan safari uni yangi maktab ochish shiddatini berdi va Samrqand atrofidagi Halvoiy (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablarni ochdi. Bebuliy ko‘p xizmat safarlarida bo‘lar edi, xususan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rossiya musulmonlarining turmush tarzi va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi hamda bu qurultoyda Behbudiy turkistonliklar guruhini boshqaradi va katta nutq so‘zlaydi<sup>3</sup>.

U 1913-yildan matbuot ishlari bilan shug‘ullanadi. Apreldan Samarqand gazetasini chiqardi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab 2 so‘ng 4 sahifada chop etilgan. Avgustdan esa oyna jurnalini chiqara boshlaydi. Ushbu jurnal, asosan, o‘zbek tili bo‘lib, unda forsiy sherlar maqolalar, Ruscha e’lonlar berilar edi. Jurnal tahminan 20 oy davomida 15 kunda bir marta chiqarilgan bo‘lishiga qaramay, Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi. Jadidlarning suyukli jurnallari edi.

Behbudiy adabiy tanqidga katta e’tibor bergen. Navoiydan keying bir necha asrlik sukunatdan so‘ng bu sohaning xos xususiyatlarini tayin etib, adabiyotda uning teng huquqligi masalasini ortaga qo‘ydi. “Taqid saralamoqdur” (1914-yil., 27-son) deb nomlangan edi uning ushbu mavzuga bag‘ishlangan jiddiy maqolalaridan biri.

Turkiston zabit etilgach, ruslar mahalliy xalqqa “sartlar” deb nom berdilar. N . Ostroumovning bir kitobi xuddi shunday nomlangan. Bu so‘z, aslida turli vaqtida turli etnik qatlama, goho sotsial qatlama nisbatan aytilgan. 10-yillarda bu soz atrofida yana bahs ketadi. Jumladan, Buxoro amirining ruschaga tarjimoni Bahrombek 1911-yilda “Sho‘ro” jurnaliga “Biz Turkiston va Buxoro xalqining turkligi ma’lum bo‘lib turib... na uchun sart ataydurlar?” degan savol bilan murojaat qiladi. Jurnalning 19-

<sup>1</sup> Xoji Muin. Mahmudxoja Behbudiy, “Zarafshon” gazetasi, 1923-yil 25-mart

<sup>2</sup> Mahmudxoja Behbudiy. Qasdi safar, “Oyna” 1914-yil., 31-son

<sup>3</sup> A.A.Pyaskovskiy. Революция 1905-1907 годов в Туркестане. 1958

sonida Behbudiyning “Sart so‘zi majhuldir” degan javobi bosiladi. Biroq oradan 2-3 yil otib “Sadoi Fargona”ning 1914-yil 30-sonida Mulla Abdullabek degan kishining “Sart so‘zi ma’lumdir” degan maqolasi bosiladi. Behbudiy undan qanoatlanmaydi, chunki unda mavzuga doir biror yangi gap aytilmagan holda, “ma’lum” deb da’vo qilingan edi. Shu sababli Behbudiy “Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi” degan maqola yozib “Sadoi Farg‘ona”ga yuboradi, lekin gazeta maqolani bosmaydi. Shundan so‘ng muallif maqolani o‘z jurnalida chop ettirishga majbur bo‘ladi. Jurnalda Behbudiyning “Sart so‘zi majhuldur” maqolasi ham qayta bositgan. Ushbu maqolani Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Abdug‘izi Bahodirxonning asarlarigacha I.I.Geyer “Sayohatnama”laridan va boshqa manbalardan foydalanib tayyorlagan edi. Adibning barcha tarixiy-ilmiy mavzudagi maqolalari singari bu ham o‘tmishga kamoli ehtirom va e’tiqod bilan yozilgan.

“Chirog‘larim! Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqa hottодунyoning u bir uchidagi qarindoshlar ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli qavrlarlarga tobe bolub, yutilub, hatto tilini yo‘qotgan o‘z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqda jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o‘z ichimizdagи qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdur, ahmoqlikdur. Turk tomurig‘a bolta urmoqlikdur”<sup>4</sup>

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Axmedov., Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti – Toshkent: Ma’naviyat, 2004
- Ziyo Said . Tanlangan asarlar. T.,1974
- Samoylovich A. Драмитическая литература сатровю .Вестник. 1917

<sup>4</sup> “Xurriyat” gazetasi, 1918- yil 26-yanvar.